

7 dekabr - Xalqaro fuqaro aviatsiyasi kuni

2019 7 Dekabr

Har yili 7-dekabrdan Xalqaro fuqaro aviatsiyasi kuni (International Civil Aviation Day) nishonlanadi. Ushbu bayramning tashabbuskori Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO) bo'lib, u xalqaro miqyosda parvozlar xavfsizligini, aviatsiya xavfsizligini, samaradorligini va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan xalqaro standartlar va qoidalarni belgilab beradi, shuningdek a'zo davlatlar o'rtaida fuqaro aviatsiyasining barcha sohalarida hamkorlik qilish vositasi hisoblanadi.

1992-yilda "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasi tashkil etilganidan so'ng aviatorlar mamlakatimizning ICAOga kirishiga qizg'in tayyorgarlik ko'rishni boshladilar. Qisqa vaqt ichida ko'plab kompleks tayyorgarlik tadbirlari amalga oshirildi.

1992-yil 12-noyabrdan O'zbekiston tomonidan Chikago konventsiyasining imzolanishi va mamlakatning ICAOga to'liq qo'shilishi tarixiy voqeа bo'ldi. "Uzbekistan Airways" AJ mutaxassislari ICAO ishida faol ishtirok etadilar. O'zbek aviatorlarining faol pozitsiyasi tufayli mamlakatimizda ICAO standartlari, eng zamonaviy va zarur qoidalari, o'Ichov birliklari, geodezik koordinatalar tizimi va boshqa muhim parametrlar joriy etildi.

Barcha aviatorlarni Xalqaro fuqaro aviatsiyasi kuni bilan tabriklaymiz, xavfsiz parvoz, yo'nalishlar geografiyasini kengayishini va musaffo osmon tilaymiz!